IQTISODIYOTNI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI

Pulatov Jahongir Shuxratjon o'g'li
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetining 2-bosqich talabasi
Sharipova Umida Adxamovna
O'qituvchi Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Annontatsiya;*Ushbu maqolada iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning xorijiy mamlakatlar tajribasi to'g'risida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar;*Iqtisodiyot,tartib,rivojshlanish,ta'minlash,maqsad,ijtimoiy,poydevor.*

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish - jamiyat a'zolarining ehtiyojlarini qondirish darajasini oshirish uchun cheklangan ishlab chiqarish resurslaridan yanada samarali foydalanishni ta'minlovchi, umumiy iqtisodiy muvozanatga erishishga yo'naltirilgan, ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish bo'yicha davlaatning faoliyati.

Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning maqsadi – iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, mavjud tuzumni mamlakat ichida va xalqaro maydonda mustahkamlash hamda uni oz'garib turuvchi sharoitga moslashtirish hisoblanadi.

Davlatning iqtisodiy vazifalari - bozor tizimining samarali amal qilishiga imkon tug'diruvchi huquqiy asos va ijtimoiy muhitni ta;minlash; Raqobatni himoya qilish; Daromad va boylikni qayta taqsimlash; Resurslarni qayta taqsimlash; Iqtisodiyotni barqarorlashtirish.Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solishning usullari – bevosita ta'sir qilish usullari; bilvosita ta'sir qilish usullari; tashqi iqtisodiy usullar.

Bevosita usullar – yaxlit takror ishlab chiqarish jarayoni yoki uning alohida tomonlarini to'g'ridan-to'g'ri, ma'muriy tartibga solish. Masalan, iqtisodiyotning ayrim bo'g'inlari transport, aloqa, atom va elektr energetikasi, kommunal xizmat va boshqa sohalarni bevosita boshqarish; narxlar va ish haqini "muzlatib" qo'yish siyosati; ish bilan bandlik xizmati faoliyatini tashkil qilish; iqtisodiy sohani tartibga solishni lo'zda tutuvchi qonunlarni ishlab chiqarish va qabul qilish.

Bilvosita usullar – bunda iqtisodiy dastak va vositalarga ustunlik beriladi. U davlatning pul-kredit va byudjet siyosatida o'z ifodasini topadi. Pul-kredit siyosatining asosiy vositalari quyidagilardan iborat: hisob stavkasini tartibga solish; moliya-kredit muassasalarining Markaziy bankdagi zahiralari minimal hajmini o'rnatish va o'zgartirish; davlat muassasalarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi operasiyalari.

Aholi daromadlari – aholining ma'lum vaqt davomida pul va natural shaklda olgan daromadlari miqdori. Nominal daromad – aholi tomonidan ma'lum vaqt oralig'ida olingan daromadlarning pul ko'rinishidagi miqdori hisoblanadi.Real daromad –

narx darajasi o'zgarishini hisobga olib, aholining ixtiyorida bo'lgan daromadga sotib olish mumkin bo'lgan tovar va hizmatlar miqdorini ko'rsatadi, ya'ni daromadning xarid quvvatini bildiradi. Daromadlar tengsizligi – aholi jon boshiga to'g'ri keladigan o'rtacha daromadlar darajasi bir-biridan farqlanishini bildiradi. Lorents egri chizig'i – daromadlar tengsizligi darajasini miqdoriy aniqlashni xarakterlaydi.

Djini koeffitsienti – yalpi daromadning aholi guruhlari o'rtasida taqsimlanishini tavsiflash uchun qo'llaniladi. Oila byudjeti – bitta oilaning ma'lum davr uchun barcha daromadlari va harajatlari tarkibi. Ijtimoiy siyosat – davlatning daromadlar taqsimotidagi tengsizlikni iqtisodiyot qatnashchilari o'rtasidagi ziddiyatlarni bartaraf qilishga yo'naltirilgan siyosat. Ijtimoiy himoya – mamlakat aholisini ijtimoiy va moddiy muhofaza qilinishini ta'minlaydigan va jamiyatda qaror topgan xuquqiy, iqtisodiy, ijtimoiy chora-tadbirlar majmui;

Aholini ijtimoiy himoyalash chora-tadbirlari tizimidagi eng asosiy yo'nalish – bu narxlarni erkinlashtirilishi va pulning qadrsizlanish darajasi ortib borishi munosabati bilan daromadlarning eng kam va o'rtacha darajasini muntazam oshirib borish hisoblanadi.

Tartibga solish o'z oldiga qanday maqsad va vazifalarni qo'yadi? Iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish ob'ektiv ravishda shartlanadi. Ko'plab iqtisodchilar iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solinishining zarurligini faqat bozorning kamchiliklari, uning ko'plab iqtisodiy muammolarni hal eta olmaslik holati bilan izohlaydilar.

Barcha iqtisodiy tizimlarda davlat va bozor tizimi o'ziga xos ahamiyat kasb etib, har biri mustaqil amal qiladi. Shu bilan birga turli iqtisodiy tizimlar bir-biridan iqtisodiyotni boshqarish va tartibga solishda davlat va bozor rolining nisbati bo'yicha keskin farqlanadi. Masalan, bir iqtisodiy tizim ko'proq davlat tomonidan boshqarishga tayansa, boshqasi bozor mexanizmi orqali tartiblashga ustunlik beradi. Mustaqil taraqqiyot davrida «mamlakatimizning uzoq va davomli manfaatlari taqozo etgan holatlarda va keskin vaziyatlardan chiqish, ular tug'diradigan muammolarni hal etish zarur bo'lganda iqtisodiyotda davlat tomonidan boshqaruv usullari qo'llandi va bunday yondashuv oxir-oqibatda o'zini to'la oqladi»

Iqtisodiyotni tartiblashda bozor mexanizmining roli 5-bobda ko'rib chiqilgan edi. Bu bobda bozor iqtisodiyotini tartibga solishda davlatning rolini ochib berishga harakat qilinadi.

Dastlab davlatning milliy iqtisodiyotdagi roli tahlil qilinib, keyin uning iqtisodiy vazifalari tavsifi beriladi. Bobning so'ngida davlatning iqtisodiyotga ta'sir qilish usul va vositalari bayon etiladi.

23.1. Davlatning milliy iqtisodiyotni tartibga solishdagiroli haqidagi nazariya va qarashlar

Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlat yoki bozor tizimining tutgan roliga bog'liq.

Chunki milliy iqtisodiyotning yuqori samaradorligiga asosan quyidagi yo'llar orqali erishiladi:

1) iqtisodiyotni tartibga solishning bozor usullarini qo'llash;

2) iqtisodiyotni faqat davlat tomonidan markazlashgan holda boshqarish;

3) takror ishlab chiqarish jarayoniga davlatning aralashuvi va bozor usullarini uyg'unlashtirish. Hozirgi davrda O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti rivoji uchun ko'proq uchinchi yo'l xususiyatli hisoblanadi.

Xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotga jalb qilish shakllari va uni tartibga solishning jahon tajribasi

Iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalarni jalb qilish siyosati mavjud mablag`lardan, vaqtdan va imkoniyatlardan samarali foydalanishga, turli xil risklarni, mavjud shart-sharoitlarni hisobga olgan holda boyliklarni samarali joylashtirishga va shu yo`l bilan respublika iqtisodiyotini ko`tarishga, uning jahon iqtisodiy tizimiga qo`shilishiga, chet el investitsiyalarining kirib kelishini a rag`batlantirish yo`li bilan investitsiyalarni, ko`proq, iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlariga jalb qilishga hamda ulardan samarali foydalanishga qaratilgan.

Bugungi kunda xorijiy investitsiyalarni jalb qilishning bir qancha shakllari mavjud, ya`ni:

Ulushi qo`shilib qatnashishi orqali qo`shimcha korxonalarni tashkil etish; 100% mol - mulk xorijiy investorlarga tegishli bo`lgan xorijiy korxonalarni tashkil etish; yirik xorijiy kompaniya va firmalarning shu`ba korxonalari va filiallarini tashkil etish; kontsessiya va lizing shartnomalari tuzish; tenderlar e`lon qilish; erkin iqtisodiy hududlar tashkil etish; moliyaviy aktivlarni sotish va sotib olish.

Qo`shma korxonalar tashkil etish orqali xorijiy investitsiyalarni jalb qilish keng tarqalgan shakllaridan biri hamkorlikda qo`shma korxonalarni tashkil etishdir. O`zbekiston Respublikasida qo`shma korxona deganda, nizom kapitalining kamida 30 % xorijiy investorlarga tegishli bo`lgan va xorijiy investor faqat yuridik shaxs bo`lgan, nizom kapitalining eng kam mikdori 150000 AQSH dollariga teng bo`lgan ekvivalent summani tashkil etgan korxonalarga aytiladi.12 Xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxona nizom jamg`armasining 150000 AQSH dollaridan kam • bo`lmasligi sifatsiz mahsulotlarining oldi - sotdisi va ularni respublikaga import qilish ishlari bilan shug`ullanishga ixtisoslashgan kichik qo`shma korxonalarning keragidan ortiqcha kirib kelishining oldini olish maqsadida belgilangan.

Xorijiy korxonalarni tashkil etish orqali chet el investitsiyalarini jalb qilish bugungi kunda kengayib bormoqtsa. O`zbekistonda xorijiy investitsiya ishtirokidagi korxonalar iqtisodiyotning turli soxalarida tashkil etilishi mumkin. Yirik xorijiy kompaniya va korxonalar o`z mol - mulklari bir qismini ajratib, shu`ba korxonalar ochishi mumkin. Bunday shu`ba korxonalarga ham qo`shma korxonalarga qo`yilgan talablar belgilangan.Ikki yoki uchdan ortiq davlat yoki korxonalar o`z kapitallarini jamlagan holda halqaro tashkilotlar tashkil

etishi mumkin.Kontsessiya shartnomalari - bu tabiiy boyliklarni, ayrim foydali qazilmalarni qazib olish va o`zlashtirish uchun tuzilgan shartnomalardir.

Lizing shartnomasi esa chet el investitsiyalari ishtirokida asbob - uskunalarni, texnika - texnologiyalarni uzoq muddatga ijaraga olish. Tenderlar esa tanlov asosida investorlarning investitsiya loyihalarini moliyalashtirishga jalb etilishidir. erkin iqtisodiy hudud - bu ma`lum hududda chet el investitsiyalari erkin kirib kelishi va ularga nisbatan qator imtiyozlar belgilangan hududdir. O`zbekiston Respublikasining "Erkin iqtisodiyot hududlar to`g`risida"gi Qonunida erkin iqtisodiy hududga quyidagicha ta`rif berilgan: "Erkin iqtisodiy hududlar - mintaqani jadal ijtimoiy — iqtisodiy rivojlantirrish uchun mamlakat va chet el kapitalini, istiqbolli texnologiya va boshqaruv tajribasini jalb etish maqsadida tuziladigan, aniq belgilangan ma`muriy chegaralari va alohida huquqiy tartiboti bo`lgan maxsus ajratilgan hududdir". erkin iqtisodiy hududlarni tashkil etish jarayonida davlat qo`llab - quvvatlovchi, rag`batlantiruvchi hamda nazorat qiluvchi sifatida bosh islohotchi bo`lishi lozim.

Davlatning bosh iclohotchi sifatida qatnashishi xorijiy mamalakatalar tajribasida aniq namoyon bo`ladi, masalan, Xitoy hukumati 1 dollar chet el inveestitsiyalarni jalb etish uchun 4 dollar o`z mablag`larini safarbar etgan. Natijada, milliy va asosan, xorijiy investorlar hududlarga investitsiyalar kirita boshlagan, bu esa o`z navbatida, mamlakat iqtisodiyotini rivoji uchun poydevor bo`lib xizmat qildi. Rossiyada yaratilgan erkin iqtisodiy hududlarga Naxodka, Kaliningrad viloyati, Sankt - Peterburg shahari va boshqalar kiradi. Qozog`istondagi birinchi erkin iqtisodiy hududlar 1991 yilda paydo bo`lgan. Bular: Jezqozg`on viloyatdagi Jayren - Atasu, Kostanay viloyatdagi Lisakov va Olmaota shahardagi "Otakent" erkin iqtisodiy hududlaridir.

Moliyaviy aktivlar - bu qimmatli qog`ozlar bo`lib, u chet el kapitalini jalb etish, chet el kreditlarini olish va chet el kapitalini bank depozitlariga jalb etish uchun emissiya qilinadi.

Investitsiya faoliyatini amalga oshirish va chet el investitsiyasini faol jalb etish uchun, nafaqat, hududlar balki, tarmoqlarda, shuningdek, investitsiya faoliyatining sub`ekti va ob`ektlarida ham investitsion jozibadorlik reytinglarini tahlil etib, hisoblab chiqish zarurdir. Bunda, asosan, chet el investitsiyasini iqtisodiyot sohalari bo`yicha mutanosib jalb etishning kompleks dasturini ishlab chiqish va unda tarmoqlarni, asosan, 3 guruhga, ya`ni ishlab chiqarish, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga bo`lib, investitsiyani ustuvor darajada real sektorga yo`naltirib, so`ng qolgan sohalarni rivojlantirishga hamda iqtisodiyot rivojlanishi va zaruriyatidan kelib chiqib, xizmat ko`rsatish va ijtimoiy sohalarga ham jalb etilsa, maqsadga muvofiq bo`lur edi.

Rivojlangan mamlakatlar xalqaro kapital harakatini, asosan, kapital eksporti-importini milliy va xalqaro darajada ragbatlantirish orqali amalga oshiradilar. Kapitalning qarzlar, portfel’ investitsiyalar va boshqalar shaklida harakat qilishi borasidagi davlat siyosati uning harakatidagi barcha cheklashlarni olib tashlash maqsadida olib boriladi. Barcha xorijiy investitsiyalargarga nisbatan davlat har qanday cheklashlarni amalga oshirish huquqini o`z

zimmasida qoldiradi, chunki bu milliy iqtisodiy havfsizlik bilan bog`liq. SHunisi harakterliki, kapitalni chetga chiqarish uni jalb qilishga nisbatan kam darajada tartibga solinib turiladi.

Davlat tartibga solishning quyidagi usullaridan foydalanadi:

1)moliyaviy: jadallashtirilgan amortizatsiya; soliq imtiyozlari; subsidiyalar, qarzlar berish; kreditlarni sug`urtalash va kafolatlash;

2) nomoliyaviy: er uchastkalari ajratish; zaruriy infrastruktura bilan ta`minlash; texnik yordam ko`rsatish.

RAQAMLI IQTISODIYOT: TARAQQIYOT SARI QISQA YO'L.

Bashariyat iqtisodiyot tarmoqlari o'zgarishi, bu jarayonning raqamlashuvi, mobillashuvi, sohaga sun'iy intellektning joriy etilishi bilan bog'liq muhim davrni boshdan kechirmoqda. 2022 yilga kelib dunyo YAIMning qariyb chorak qismi raqamli sektorga to'g'ri kelishi prognoz qilinayotgan bir sharoitda yangi iqtisodiyotni rivojlantirish zarurati yanada oydinlashadi.

Rivojlangan davlatlarda raqamli iqtisodiyotni joriy etishga allaqachon kirishilgan. Jahon iqtisodiyotining globallashuvi va texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida O‘zbekistonning iqtisodiy taraqqiyotiga raqamli iqtisodiyotni rivojlantirmasdan erishib bo‘lmaydi.

Yangi iqtisodiyot nima?

Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni “yangi iqtisodiyot”ni vujudga keltirdi. Kam o‘rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kampaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib, maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste’molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig‘iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo‘natishdan ko‘ra kengroq imkoniyatlar bo‘lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi.

Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog‘langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. Raqamli iqtisodiyot konsepsiyasi atomdan bitga, ya’ni kimyoviy eng kichik zarradan elektron birlikka o‘tishga asoslanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirining birinchi o‘rinbosari Olimjon Umarov ta’kidlashicha, raqamli iqtisodiyot alohida faoliyat turini emas, balki ishbilarmonlik, sanoat obyektlari, xizmatlarda axborot texnologiyalaridan faol foydalanishni anglatadi. Agar oddiy iqtisodiyotda moddiy buyumlar asosiy resurs hisoblansa, raqamli iqtisodiyotda bu qayta ishlanadigan hamda uzatiladigan axborot, ma’lumotlar bo‘ladi.

Raqamli iqtisodiyot yirik sanoat obyektlari ish samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishda o‘sish, faoliyat shaffofligini ta’minlash, mahsulot tannarxini kamaytirish imkonini beradi.

O‘zbekistonda “Raqamli O‘zbekiston-2030” dasturini ishlab chiqilishi va hayotga tatbiq etilishi, eng avvalo, puxta va mukammal tashkiliy-huquqiy mexanizmlarni shakllantirish, qolaversa, innovatsion g‘oyalar, texnologiyalar va ishlanmalarni joriy etish bo‘yicha davlat organlari va tadbirkorlik subyektlarining uzviy hamkorligini ta’minlash, barcha soha va tarmoqlarda ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishni raqamli texnologiyalar bilan qamrab olish, bu borada zamonaviy bilimlarni chuqur egallagan, intellektual salohiyatli kadrlarni yetishtirish, shu orqali, mamlakatda “axborotlashgan jamiyat” muhitini yaratishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. I.A. Karimov. O‘zbekiston o‘z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: “0 ‘zbekiston”, 1992.

2. I.A. Karimov. O'zbekiston - bozor munosabatlariga o'tishning o'ziga xos yo'li. T.: ''O'zbekiston"1992.

3. I.A. Karimov. O'zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yoMida. T.: “O’zbekiston”, 1995.

4. l.A. Karimov. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.: O‘zbekiston 1996.

5. I.A. Karimov. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.: “O’zbekiston“, 1996.

6. l.A. Karimov. 0 ‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: “O‘zbekiston”, 1997.

7. l.A. Karimov. Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi. T.: “O‘zbekiston”, 1997. 8. l.A. Karimov. O'zbekiston buyuk kelajak sari. T.: “O'zbekiston”, 1998.